

UMUMIY VA BOLALAR  
XIRURGIYA KAFEDRASI

# «XIRURGIYA NIMA DEGANI?»


DASTURLANGAN ELEKTRON  
UQUV QULLANMA



## ASSALOMU ALAYKUM XURMATLI TALABALAR.

"Umumiy xirurgiya" ni electron uq'uv gullanmasiga xush kelibsiz. Men, t.f.d. professor Oxunov Alisher Oripovich, "Umumiy va bolalar xirurgiya" kafedrasi muduri lavozmida faoliyat kursatman. Men sizlarga XIRURGIYa - bu nima degani savolningizga javob beraman.

XIRURGIYA - bu klinik tibbiyotni asosiy bo'limlaridan biri bo'lib, kasalliklar va shikastlanishlarni o'rgatadi, turli darajadagi tuqimalarni butunligini buzulishini tashxislash va davolash maq'sadida xar xil usullar va ko'nikmalardan foydalaniladi. Xirurgiyani tibbiyotni boshq'a soxalaridan farq'i shuki, odam tanasini ichki muxitiga kirib boradi, bunda albatta odam a'zolarini tashq'i muxitdan chegaralab turuvchi q'oplab, ximoyalab turgan teri va shilliq qavatlarni (kesib, teshib, q'iyib, yorib) shikastlab



t.f.d. professor Oxunov  
Alisher Oripovich, Toshkent  
Tibbiyot Akademiyasi  
UMUMIY VA BOLALAR XI-  
RURGYA kafedrasi muduri



kiriladi - demak infeksiyani rivojlanishi uchun q'ulay sharoit paydo bo'ladi, q'on ketish va to'qimalarni mexanik shikastlanishi xirurgik operasiyani asosiy asoratlariga kiradi.

O'zbekiston Respublikasini barcha tibbiyat fakultetlarida, "Davolash ishi bo'yicha umumiyligi amaliyot shifokori" tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlarida magistratura tizimi joriy qilingan.

2 kurs III va IV-chi semestrlarida xirurgiyaning "Vrach-patient" kursi bilan boshlanadi. Bu yunalishda tabalar xirurgiyaga kirish sirlarini o'rganishadi. Talabalar 2 kursda bemorlar bilan verbar va noverbal muloqot qilishni urushi kerak.

Xirurgiyada ishlash, yurish-turish tartib-qoidalari bilan tanishish kerak, xirurgiyani tuzulishi bilan yaqindan



t.f.d. professor Babadjanov  
Baxtiyor Duschanbaevich,  
TTA UMUMIY VA BOLALAR  
XIRURGYA kafedrasi  
professori



## MUQQADIMMA

tanishib olishi kerak.

3 kurs V-VI-chi semestrlarida talabalar "Umumi xirurgiya" ni urganishi kerak. Bu kursda xirurgik infeksiya, xirurgik infeksiya bilan kurashish, xirurgik bemorlarni tekshirish, shikastlanishni tashxislash va davolash asoslarini, qon ketish, xar xil ochig jaroxatlar, travmatologiya asoslari, onkologik va boshqa kasalliklar bilan tanishib olishi kerak.

4 kurs VII-VIII-chi semestrlarida "Fakultet xirurgiya" si uqitiladi. Fakultet xirurgiya xirurgik kasalliklarni uziga xos simptomatikalari, tashxislash usullari va davolash prinsiplarini uqitadi.

5 kurs IX-X-chi semestrlarda "Gospital xirurgiya" uqitiladi. Gospital xirurgiya tashxislash usullari va davolash prinsiplaridan tashqari, talabalarga kasalliklarni davolash taktikasi, zamonaviy tashxislash va davolash



t.f.d. professor Qayumov  
Toxir Xatamovich, TTA  
UMUMIY VA BOLALAR XI-  
RURGYA kafedrasi  
professori



Kafedra dotsenti, t.f.n.  
Mexmanov SH. R.



Kafedra dotsenti, t.f.n.  
Baymakov S. R.



Kafedra dotsenti, t.f.n.  
Xodiev X.S.

kunikmalarini uzlashtirish, kam uchraydigan kasalliklar xagida ma'lumot olishadi. Shu bilan xirurgiya fanini tamoyillarini urganish tugaydi.

6 va 7-chi kurslarda, UASh-xirurgiya fani uqitiladi. Talabalarni QVP (qishloq vrachlik punktida) ishlashga tayyorlaydi, yoki kasbiy maxoratini oshirish uchun imtixon-tanlov va

saralash asosida magistraturada xirurgiyani aynan biron yunalishi buyicha ugishni davom etishi mumkin.

"UMUMIY XIRURGIYa" atamasi diplomli vrachni, vrachlik kasbi yunalishini belgilab beradi. Bunda vrach-xirurg kim, qanday xirurgik kasallarni davolaydi, muayyan mutaxassislik yoki kasallik bilan

Shug'ullanmaydi, faqat umumiy xirurgik kasalliklar (jaroxat va shikastlanishlarni davolash, qorin a'zolarini utkir qon ketishida operativ davolash, xavfsiz va xavfli usmalarni olib



Kafedra assistenti, t.f.n.  
Abdullaev U.R.



Kafedra assistenti  
Sharipov Yu.YU.



Kafedra katta laboranti  
Boltaev Sh.Sh.

**MUQQADIMMA**

tashalash, yiringli bushliqlarni operativ yul bilan ochish, gorin churralarini operativ davolash, oyoq venalarini varikoz kasalligi va boqalar) ni davolash bilan shug'ullanishini belgilab beradi.

Shifokorlik kasbini uqitishda "UMUMIY XIRURGIYa" fani bir suz bilan aytganda xirurgiya asoslarini urgatadi. Masalan ichki kasalliklar propedevtikasi terapeutik kasbini urgatgan singari.

UMUMIY XIRURGIYa - kursini asosiy magsadi, talabalarga xirurgik kasalliklarni tekshirish usullarini, tashxis quyish va zamonaviy davolash usullari urgatish, va xirurgik kasalliklar semiotikasini asosiy turlari bilan tanishtirish.

UMUMIY XIRURGIYa kursini asosiy vazifasi talabalarga xirurgik kasalliklarni tashxislash va davolashni asosiy negizlarini kasbiy maxorat darajasida urgatish, umumiyl xirurgiya



## MUQQADIMMA

zimmasiga yuklatilgan. "Umumiy xirurgiya"fanini uqitmasdan (fakultet va gospital xirurgiya, urologiya, onkologiya, doyalik va ginekologiya va b.) kabi fanlarni uqitish - urta maktabni bitirmay institutga kirish bilan barobardur.

Shuning uchun "Umumiy xirurgiya" fani dasturiga: aseptika va antisептика, zamonaviy tashxislash usullari (endoskopiya, ultratovush tashxislash, kompyuter tomografiya) kabi usullarni urgatish, qon ketish va uni vaqtincha va batamom tuxtatish, qon va qon maxsulotlarini quyish, og'riqsizlantirish turlari va reanimasion chora-tadbirlarni utkazish, xirurgik operasiyalarni asosiy bosqichlari va bemorlarni operasiyadan oldin va keyin parvarishlash kabi bir qator mavzular kiritilgan.





Xirurgiyada kup uchraydigan kasalliklarni klinik kechishini uqitadi. "Umumiy xirurgiya" kursiga quyidagi kasalliklar (turli xil ochiq jaroxatlar, lat yeyishlar, sinish-chiqishlar, nekrozlar, trofik yaralar, termik kuyish, sovuq urish, elektrotravma, yiringli xirurgiyani xammasi, parazitar kasalliklar) ni diagnostikasi va davolash chora-tadbirlari kiritilgan. Bundan tashqari transplantasiya va plastik xirurgiya asoslari yunalishi xam kiritilgan.

"Umumiy xirurgiya" fanini ugitish maqsadga muvofiq ekanligi, xususiy travmatologiya, doyalik-ginekologiya va boshqa bir qator xirurgik yunalishdagi fanlarni uqitishda shartli ekanligi uz isbotini topgan.

"Umumiy xirurgiya" fani dasturi mikrobiologiya, farmakologiya, odam anatomiysi, rentgenologiya, patologik va topografik anatomiya, xarbiy-dala xirurgiyasi, gematologiya, normal va patologik fiziologiya kafedralari dasturlari bilan muvofiqlashtirilgan.

